

MAKTAB MUSIQA DARSLIKLARINI BRAYL NOTA YOZUVIDA YARATISH

Ma'rufjon Inatullayev Nodirjon o'g'li

Kattaqo'rg'on shahar Xalq Ta'limi Bo'limiga qarashli

9- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktab musiqa darsliklarini brayl nota yozuvida yaratish, ko'zi ojiz o'quvchilarga Brayl nota yozuvi yordamida musiqiy cholg'ularni o'rgatishning yangi tiflopedagogika metodlari, ko'zi ojiz o'quvchilarga musiqiy cholg'ularni o'rgatish jarayonida Brayl nota yozuvidan foydalanish haqida to'liq fikr yiritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa darsliklar, brayl nota yozuvi, musiqiy cholg'ular, Qonun cholg'usi.

Kirish:

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo'lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og'zaki muomala ko'nikmalarini o'zlashtirish hamda o'qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta'lim muammolarida o'qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo'lgan o'qituvchilarni ta'lim muassasalariga ishga joylashtirish asosida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ko'makdosh bo'lgan loyihalar tahsinga sazovordir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bir necha yillik pedagogik tajriba va izlanishlarimiz natijasida ko'zi ojiz o'quvchilarga Brayl nota yozuvi orqali musiqiy cholg'ularni o'rgatishning yangi tiflopedagogika metodlarini ishlab chiqishga erishdik. Masalan;

- dastlab, o'quvchida Qonun cholg'usining shakli va tuzilishi asosida qo'l sezgilari orqali tasavvur hosil qilinadi;
- Qonun cholg'usi to'g'risida nazariy va musiqiy boshlang'ich ma'lumotlar o'rgatiladi;



- Brayl nota yozuvining yozilishi va o'qilishi bosqichma-bosqich yod oldiriladi. Qoidaga ko'ra notalarni yozish o'ng qo'l, o'qish esa chap qo'l barmoqlari bilan amalga oshiriladi;

- o'quvchida qonun cholg'usining torlari bo'ylab yuqori tovushdan pastki tovush tomon o'ng va chap qo'l barmoqlarini yurgizib, sezish ko'nikmasini takomillashtiriladi. Mashqlar jarayonida o'ng qo'l barmoqlari chap qo'l barmoqlaridan bir oz ustunlikka ega bo'lmog'i kerak. Mazkur mashg'ulot barmoqlarda sezuvchanlik to'liq hosil bo'lgunga qadar olib boriladi;

- o'ng va chap qo'lning ko'rsatkich barmoqlariga Noxun taqiladi va barmoq sezgining barmoqdan noxunga o'tkazish zarurligini o'quvchiga o'rgatiladi;

- ko'rsatkich barmoqlar asosida qonun torlarini chertish yordamida tovush hosil qilish, shuningdek tovush qator bo'ylab gamma mashqlarini chalish tushuntiriladi. Gamma chalish jarayonida bosh barmoqlar ko'rsatkich barmoqlarga tovushlarni topishda ko'mak berib turishi zarurligi asosida o'quvchiga "Oltin qoida" tarzida singdiriladi.

Natijalar:

1830-yillarga kelib dunyoning bir nechta davlatlarida ko'zi ojizlar maktablari ochiladi. Shu sabab, 1833-yilda Fransiya hukumati ko'zi ojizlarga o'qituvchilik lavozimi berilishi lozimligi to'g'risida o'z qarorini chiqaradi. Bu, shubhasiz, Valentin Gayui, Gelsi, doktor Pine, Sharl Barbe, Luis Braille kabi fidoyilar mehnatining natijasi edi.

Brayl nota yozuvida yozilgan kuyni o'qish bilan birgalikda uni chalishni amalga oshirish vaqtida, nota yozuvi chap qo'l barmoqlari yordamida o'qilganligi tufayli chap qo'lning ko'rsatkich barmog'idagi noxun vaqtincha o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi. Shunda, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'i vazifasini o'ng qo'l o'rta barmog'i oladi, chap qo'l ko'rsatkich barmog'i vazifasi esa o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga o'tadi.

Muhokama:

1830-yillarda Parij amaldorlari o'rtasida "Ko'zi sog'lar uchun yaxshi bo'lgan barcha narsa ko'zi ojizlar uchun ham yaxshidir", degan fikr ustuvor edi. Ehtimol, mana shu go'zal g'oyaning ta'sirida bo'lsa kerak, 1837-yilda ilk marta Brayl yozuvida

“Fransiyaning qisqacha tarixi” kitobi nashr qilinadi. Uahbu kitobning nashrdan chiqishida Braille rahbarlik qildi U uch jilddan iborat bo‘lib, har birining og‘irligi o‘n kilogramm edi. Lui izlanishlarini izchillik bilan davom ettirib, 1830-yillarning oxiri, 1840-yillarning boshida braylcha chop etish moslamasini yaratadi va uni refografiya deb ataydi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ko‘zi ojiz o‘quvchilarga musiqiy cholg‘ularni o‘rgatish vaqtida Brayl nota yozuvidan foydalanish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda. Chunki, Brayl nota yozuvi barmoqlar yordamida sezish yordamida o‘qiladi. Shu tufayli uni bir vaqtning o‘zida ham o‘qib, ham chalishning imkoni yo‘q. Odatda ko‘zi ojiz o‘quvchilar biror cholg‘uda kuy ijro etishni o‘rganish uchun dastlab Brayl yozuvidagi kuyning notalarini ketma-ket yod olib, so‘ngra uni chalishga kirishadilar. Bu jarayon o‘quvchiga nihoyatda qiyinchilik tug‘diradi va undan kuchli xotira talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Xoltojiyev, “An’anaviy qonun cholg‘usi ijrochiligi”, Toshkent 2005.
2. Madina Nasretdinova, Dilshod Toshaliyev, & Durdona Raimjon Qizi Murodova. An’anaviy ijrochilik san’atining hozirgi davr muammolari. Scientific progress, 2022.
3. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov. Musiqa san’atining hozirgi kundagi o‘rni. Scientific progress, 2022.
4. Madina Nasretdinova, Ulug‘Bek Isakov, & Rustam Orziboyev. Xalq ijodiyotini rivojlantirish istiqbollari. Scientific progress, 2022.

